



## TIBBIY YO'SINDAGI MAJBURLOV CHORALARINI IJRO ETISH

**Fayzullaeva Tamara Xamidullaevna**

Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti "Jinoyat huquqi, protsessi va kriminalistika" kafedrasi dotsenti  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10820263>

### ARTICLE INFO

Received: 08<sup>th</sup> March 2024

Accepted: 14<sup>th</sup> March 2024

Online: 15<sup>th</sup> March 2024

### KEYWORDS

*Majburlov choralari, davolanish muddati, majburiy ambulatoriya kuzatuvi, ruhiy kasalliklar shifoxonasi, majburiy davolanish, ijtimoiy xavflilik darajasi, bemorni shifoxonadan chiqarish, ruhiy-asab kasalliklari dispanseri.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini ijro etish tartibi to'g'risida yozilgan bo'lib, ruhiy kasallarni davolash muassasalarida saqlash qoidalari, ruhiy kasallarning huquq va majburiyatlari va bemorlar bilan yuz beradigan vaziyatlarda shifoxona ma'muriyatining harakatlari haqida so'z boradi. Shuningdek bemorlarning ruhiy kasalliklar shifoxonasida saqlash sharoitlari haqida keltirib o'tilgan.*

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari ruhiy holati buzilgan, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxslarga nisbatan ushbu shaxslarni davolash va ularning yangi ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari alkogolizmga, giyohvandlikka yoki zaharvandlikka yo'liqqan yoxud aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan shaxslarga nisbatan jazolash bilan bir qatorda, davolash uchun va jazolash maqsadiga erishishga ko'maklashuvchi sharoitlar yaratish uchun sud tomonidan tayinlanishi mumkin.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari jinoiy jazo hisoblanmaydi. U majburiy davolanishni nazarda tutib, sud ajrimi bilan belgilanadi va tugatiladi, ammo sud davolanish muddatini belgilamaydi. Shaxsning sog'ayganligi yoki ruhiy holatida yaxshilash sezilganda yoki u tomondan ijtimoiy xavf yo'qolganda majburiy davolanish davolash muassasi ma'muriyatining taqdimnomasiga binoan qisqa muddat ichida bo'lsa ham bekor qilinishi mumkin. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralariga quyidagilar kiradi:

- a) yashash joyi bo'yicha ruhiy-asab kasalliklari dispanserida (tuman (shahar) psixiatriyning xonasida) majburiy ambulatoriya kuzatuvda bo'lish va davolanish;
- b) yashash joyi bo'yicha umumiy tartibli psixiatriya muassasasining umumiy kuzatiladigan bo'limida majburiy davolanish;
- v) umumiy tartibli psixiatriya muassasasining maxsus reabilitatsiya bo'limida majburiy davolanish;
- g) kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonasida majburiy davolanish;



d) jazoni ijro etish muassasalarining davolash-profilaktika yordami ko'rsatish bo'limlarida hamda mahkumlarga mo'ljallangan ixtisoslashgan shifoxonada majburiy ambulatoriya kuzatuvida bo'lish va davolanish.

majburiy ambulatoriya kuzatuvida bo'lish va davolanish ruhiy kasalligi zo'rayib ketayotganligini ko'rsatuvchi alomatlar bo'lmagan, shuningdek ruhiy holati vaqtincha buzilgan ruhiy kasallarga nisbatan, bunday kasallikning qaytarilmasligi va yangi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilmasligi uchun tayinlanishi mumkin.

Umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasida majburiy davolanish ijtimoiy xavfliligi ruhiy holati bilan bog'liq bo'lgan, umumiy asoslarda davolash talab etiladigan ruhiy kasallarga nisbatan tayinlanishi mumkin.

Ijtimoiy ko'rishni talab qiladigan, ularni esa ixtiyoriy tartibda o'tkazish mumkin bo'lmagan ruhiy kasallarga nisbatan umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasining sog'liqni tiklash maxsus bo'limida majburiy davolash tayinlanishi mumkin.

Kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonasida yoki bo'limda majburiy davolash o'ta ijtimoiy xavfli bo'lgan yoki o'z xulqiga ko'ra umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasi sharoitida davolanishining imkoni bo'lmagan ruhiy kasallarga nisbatan tayinlanishi mumkin.

Kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonasida yoki bo'limda ruhiy kasallar batamom ajratilgan holda saqlanadi va qo'riqlanadi.

Jinoyat-ijroiya Kodeksining 181-moddasiga muvofiq, ruhiy holati buzilgan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari sog'liqni saqlash organlari tomonidan sud-psixiatriya ekspertizasi xulosasiga muvofiq quyidagi tartibda qo'llaniladi:

- majburiy ambulatoriya kuzatuvida bo'lish va davolanish ruhiy holati buzilgan shaxsning yashash joyi bo'yicha ruhiy-asab kasalliklari dispanserida (tuman (shahar) psixiatriyning xonasida) amalga oshiriladi;

- ruhiy holati buzilgan shaxsni jamiyatdan batamom ajratib majburiy davolash, uning ruhiy holatiga qarab, umumiy tartibli psixiatriya muassasasining umumiy kuzatiladigan bo'limida yoki umumiy tartibli psixiatriya muassasasining maxsus rehabilitatsiya bo'limida yoxud kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonasida amalga oshiriladi.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari jazo bilan birga tayinlanganida alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka yo'liqqan mahkumlarga nisbatan jamiyatdan batamom ajratib qo'yish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarga hukm qilingan shaxslarga - sog'liqni saqlash organlarining tibbiy muassasalari tomonidan umumiy asoslarda ijro etiladi. Ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazoga hukm qilingan shaxslarga nisbatan - jazoni o'tash joyida, ozod etilganlaridan so'ng davolashni davom ettirish zarurati bo'lganda esa - sog'liqni saqlash organlarining tibbiy muassasalari tomonidan umumiy asoslarda ijro etiladi. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan mahkumlar jazoni ijo etish muassasalarining qabul bo'limida shifokor narkolog yoki shifokor psixiatr tomonidan ro'yxatga olinadi va 3 kun ichida tibbiy tekshiruvdan o'tkaziladi.

Ruhiy kasalliklar shifoxonasida bemorlar har kuni sayr qilish, xatlar, posilka, yo'qlov va banderollar, shuningdek pul jo'natmalari olish va yuborish, qarindoshlari va boshqa shaxslar bilan uchrashish, diniy rasm-rusumlarni ado etish, oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalarni sotib olish hamda ularni o'z yonida saqlash, kasalxona kutubxonasidan va advokat xizmatidan foydalanish huquqiga ega. Bemorlar tayinlangan muolajani qabul qilishi va ichki



tartib qoidalariga rioya etishi shart. Ruhiiy kasalliklar shifoxonalarida bemorlar kasallik turi, xulq-atvorining xususiyati, ruhiy va jismoniy holatini inobatga olib, ularni batamom ajratib qo'yishni ta'minlovchi hamda ular tomonidan yangi ijtimoiy-xavfli qilmish sodir etish, qochish, saqlash rejimini buzish ehtimolining oldini olishni ta'minlaydigan sharoiti bor palatalarga joylashtiriladi.

Erkaklar va ayollar, kattalar va voyaga yetmagan shaxslar alohida-alohida saqlanadi. Bir bemorga to'g'ri keladigan foydali maydon normasi besh kvadrat metrdan kam bo'lishi mumkin emas va bemorlarga ovqat va kasalxona kiyimi bepul beriladi.

Bemorlarni ovqat va ust-bosh bilan ta'minlash normalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Posilka, yo'qlov, banderol va pul jo'natmalari olish hamda yuborish, uchrashuvlar o'tkazish, oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalarni sotib olish, saqlash, shuningdek bemorlarga har kuni beriladigan sayr tartibi ichki tartib qoidalariga bog'liq. Ruhiiy kasalliklar shifoxonalarida bemorlarga uzoq muddatli uchrashuv berilmaydi. Bemor nomiga kelib tushgan pullar uning shaxsiy hisobvarag'iga o'tkaziladi. Oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalarni bemorlar pul o'tkazish yo'li bilan sotib oladilar.

Majburiy davolanishda bo'lgan bemor qochib ketgan taqdirda ruhiy kasalliklar shifoxonasi ma'muriyati zudlik bilan uni qidirib topish choralari ko'rish kerak. Ayni paytda ma'muriyat bu haqda shifoxona joylashgan erdagi va bemor, uning qarindoshlari yoki vasiylari yashaydigan joydagi prokurorni, ichki ishlar organlarini, psixonevrologiya dispanserini, shuningdek majburiy davolash chorasini tayinlagan sudni xabardor qilishi shart.

Majburiy davolanishda bo'lgan bemor vafot etgan taqdirda, ruhiy kasalliklar shifoxonasi ma'muriyati uning qarindoshlari yoki vasiylarini, prokuror, sudni, shuningdek bemor yashagan joydagi psixonevrologiya dispanserini xabardor qiladi.

Bemorni shifoxonadan chiqarishdan o'n kun oldin shifoxona ma'muriyati uning yashash joyidagi ichki ishlar organlariga, uning qarindoshlari yoki vasiylariga xabar qiladi.

Majburiy davolanish sud tomonidan bekor qilinganidan keyin o'n sutka ichida davolash muassasasi ma'muriyati bemorning yashash joyidagi psixonevrologiya dispanseriga ambulatoriya kartasidan ko'chirma yuboradi hamda uning qarindoshlari yoki vasiylarini, shuningdek bemorning yashash joyidagi ichki ishlar organlarini voqeadan xabardor qiladi.

Bemorlarni ruhiy kasalliklar shifoxonasidan chiqarish tartibi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanib, bemorlar yashash joyiga qarindoshlari, vasiylari yoki tibbiy xodimlar kuzatuvida yuboriladi.

**Yakun:** Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash tartibining qonunchilik tomonidan belgilab berilishi va uning ijro etilishi demokratik davlatda ruhiy kasallikka uchragan ruhiy kasallarning ruhiy salomatligining e'tibordan chetda qolmasligini anglatadi. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan ruhiy kasallikka chalingan shaxslarni davolash muassasalarida jamiyatdan ajratilgan holda saqlanish sharoiti faqat shifoxona ma'muriyatining ichki qoidalariga bilan belgilanibgina qolmay, Vazirlar Mahkamasining, Ichki ishlar vazirligining va Sog'liqni saqlash vazirligining tegishli nizomlari, shuningdek Oliy Sud Plenum qarorlari bilan tartibga solinadi.



## References:

1. O'zbekston Respublikasi Jinoyat-ijroiya Kodeksi
2. Jinoyat-ijroiya huquqi: Darslik // Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU, 2018.
3. Файзуллаева Т. Основания применения принудительных мер медицинского характера. Евроазиатский журнал академических исследований. – 2023. – С. 200-204.
4. Internet materiallari.